

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA SINFDAN TASHQARI  
SPORT MASHG'ULOTLARI ORQALI MILLIY G'URUR  
TUYG'ULARINI SHAKILANTIRISH

*Namangan davlat Universiteti*

*Pedagogika nazariyasi va tarixi kafedrası o'qituvchisi*

*Kamolova Azimaxon Odiljon qizi*

*Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Rahimjonova Nozanin Abdurasul qizi*

**Annotatsiya:** Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish modeli tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, mustaqil rivojlanishning empirik darajalarni hisobga olish hamda o'quvchilarning jismoniy tarbiya bo'yicha erishilgan yutuqlar ularda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish, o'sish ko'rsatkichlaridagi mavjud holati va samarador usullari, jismoniy tarbiya metodikasining o'tkazilgan tajriba-sinov ishlariga moslashuvchanligini sintezlash asosida o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tarbiya tizimi, muassasalart, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish mashg'ulotlari, o'quv mashg'ulotlari, psixologik xususiyatlari, mulliy g'urur, estetik dunyoqarash, estetik xatti-harakatlar.

FORMING FEELINGS OF NATIONAL PRIDE THROUGH SPORTS  
ACTIVITIES OUTSIDE THE CLASSROOM IN GENERAL SECONDARY  
EDUCATION INSTITUTIONS

**Annotation:** The model of developing students' sense of national pride in extracurricular sports includes learning experiences, skills and competences, taking into account the empirical levels of independent development and the achievements of students in physical education. in them, the possibilities of developing a high level of physical training of students will be expanded based on the synthesis of the current state of growth indicators and the flexibility of the physical education methodology to the conducted experimental work.

**Key words:** Educational system, institutions, physical education, health training, educational training, psychological characteristics, national pride, aesthetic outlook, aesthetic behavior.

ФОРМИРОВАНИЕ ЧУВСТВА НАЦИОНАЛЬНОЙ ГОРДОСТИ  
ПОСРЕДСТВОМ ЗАНЯТИЙ СПОРТИВНЫМ ВНЕ КЛАССА В  
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

**Аннотация:** Модель формирования у студентов чувства национальной гордости во внеучебной спортивной деятельности включает в себя учебный опыт, умения и компетенции с учетом эмпирических уровней самостоятельного развития и достижений студентов в физическом воспитании, в них раскрываются возможности формирования высокого уровня физической подготовки студентов будет расширен на основе обобщения современного состояния ростовых показателей и гибкости методики физического воспитания к проводимой экспериментальной работе.

**Ключевые слова:** Система образования, учреждения, физическое воспитание, оздоровительное воспитание, воспитательная подготовка, психологические особенности, национальная гордость, эстетическое мировоззрение, эстетическое поведение.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tarbiya tizimidagi islohotlar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan dars jarayonlarining va darsdan tashqari mashg'ulotlarning bola saxsini shakilanishiga uning barkamol shaxs bo'lib yurt tinchligi vatan ravnaqi uhun o'z xissasini qo'shadigan kadrlarni tayyor olamiz. Hozirgi kunda mmumiy o'rta ta'lim muassasalarida "jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish tadbirlari" jismoniy tarbiyava sog'lomlashtirish dasturi asosida tashkil etiladi. Jismoniy tarbiya dasturlarida belgilangan faoliyatlar o'quvchilarni jismoniy tarbiya darslarini hamda sinfdan tashqari ishlarning mazmunli va zamonaviy talablar asosida shakllantirishga aloxida etibor qaratiladi. Shu bilan bir qatorda o'quvchilar jismoniy tarbiya va sport, sog'lomlashtirish tadbirlari tashkil etish jarayonlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining organizmga ijobiy ta'sirlari hamda o'quvchilarning individual psixologik shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish, tabiat omillari suv, quyosh va havo yordamida chiniqtirish muolajalari qabul qilishning qoida va talablari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lib boradilar. Bunday nazariy ma'lumotlar bilan qurolantirshda mamlakatimiz va horijiy mamlakatlarining yetuk pedagogik tajribalari va maxsus mutaxassislarning adabiyotlari va ko'rsatmalaridan hamda internet ma'lumotlaridan keng foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqorida keltrilgan fikrlarimizni quyudagi sinfdan tashqari mashg'ulot misolida ko'rib chiqamiz. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini eng samarali shakillaridan biri sinfdan tashqari sport mashgulotlari xisoblanadi.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda milliy g'urur, qadryatlar, umum insoniy xis tuyg'ularni rivojlantirishga oid bir qator metodik adabiyotlar ham yaratilgan bo'lib, ularda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari ham aloxida etirof etilgan :

1. jismoniy mashg'ulotlarni asosiy mashqlarni olib borishning asosiy tamoyillari
2. o'rganilgan mashg'ulotlarni amaliyotda qo'llashning ketma-ketligi
3. amalga oshirilayotgan jismoniy tayyorgarlikni nazorat qilishning shakl va metodlari.
4. O'quvchilarning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jismoniy yuklama berishning me'yorlari
5. jismoniy harakatlarning o'ziga xos xususiyatlari o'quvchilar irodasiga munosabat muammolari tahlil qilingan.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur, qadryat va an'analar tuyg'usini rivojlantirishda, qo'llaniladigan pedagogik metodlar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'quvchilarda mashg'ulotlarni mazmunli tashkil etishda kamchiliklarga yo'l qo'yishimizga sabab bo'ladi.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilar o'zlarida shakillantirishlari zarur bo'lgan milliy g'urur tuyg'usini jismoniy tarbiya darslarida quyudagi strukturalarda ko'rishimiz mumkin:

- jismoniy tarbiyaga nisbatan xissey munosabat, unga qiziqish va ishonchning namoyon bo'lishi;

- sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda jismoniy tarbiya bilimlarini egallashning muhim omili sifatida qarashning paydo bo'lishi, unga erishish uchun belgilangan me'yor asosida mashq va boshqa harakatlarni bajarishning muhimligi;

- shaxsning jismoniy va ma'naviy barkamollikka erishishida ko'nikmani malakaga aylantirib borish va shu orqali mukammalikka erishish;

- jismoniy tarbiya amaliyotiga yangi tajribalarni kiritib borish va maqsadga yo'naltirish.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik jihatlari: ijtimoiy axloqiy majburiyat, pedagogik tajribalar umuminsoniy qadryatlarni tarixiy davrlar kesimida bevosita bog'lash asosida aniqlashtirish. O'quvchi yoshlar uchun olimpiya ta'limining samarali tizimini yaratish" innovatsiya loyiha ishi sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning mazmunan boyishiga xizmat qilgan;

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishning asosiy mezonlari shaxsning o'z-o'zini namoyon qilishi va ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishini targ'ib etishga qaratilgan pedagogik jarayonni

tashkil etish asosida Olimpiya sport turlari-yutuq va istiqbollari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferentsiyada keng ma'lumotlar berilgan.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan, rag'batlantirilgan, amalda qo'llanilganda jismoniy tarbiyaga nisbatan milliy munosabatni diagnostikasida aks etgan:

Demak, sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslari, jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy bilim va ko'nikmalari, jismoniy mashqlar vositasida shakllangan turli amaliy ko'nikmalar va boshqalar sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish modeli tajribalarni o'rganish, ko'nikma va malakalar hosil qilish, mustaqil rivojlanishning empirik darajalarni hisobga olish hamda o'quvchilarning jismoniy tarbiya bo'yicha erishilgan yutuqlar ularda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish, o'sish ko'rsatkichlaridagi mavjud holati va samarador usullari, jismoniy tarbiya metodikasining o'tkazilgan tajriba-sinov ishlariga moslashuvchanligini sintezlash asosida o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasini rivojlantirish imkoniyatlari kengaytiriladi.

Sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarni milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda asosiy motivatsiya va sportga bo'lgan munosabatlari hamda ularni mohiyati o'rganishga jalb qiladi:

1) bevosita sportga aloqador nozik estetik xis tuyg'ular negizida shakllanadigan ijobiy kechinmalar:

- o'quvchilarda chiroyli, estetik harakatlardan qoniqish hissi;
- o'zgaruvchan vaziyatlarda o'quvchilarni o'zini-o'zi boshqara olishi;
- o'quvchilar tomonidan o'z imkoniyatini ko'rsata olish orqali atrofdagilar e'tiborini qozonish;
- o'quvchilarning aksariyatida nomdor sportchilarga taqlid qilish;

2) bilvosita aloqadorlik negizida shakllanadigan tuyg'ular:

- o'quvchilarning chiroyli, kuchli va sog'lom bo'lish istagi;
- o'quvchilarda jismoniy imkoniyatlarini namoyon qilishlariga ota-onalarning xohishi.

Xulosa qilib adabiyotlarda qayd etilgan malumotlar tahliliga ko'ra, jismoniy tarbiya - ijtimoiy taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish, madaniyat fan va sport sohasida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratdi. " bolaning Jismoniy rivojlanish uning tarbiyasiga ta'sir etish davomida organizmda biologik o'zgarishlar va funktsiyalarning vujudga kelishi, o'zgarishi ma'lum mudatdan so'ng takomillashib boradi. Nasldan-naslga o'tadigan tabiiy hayotiy kuchlar va organizmlarning tuzilishi, inson jismoniy rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Lekin bolaning jismoniy rivojlanishning turli xil yo'nalishlari, uning xarakteriga, rivojlanish darajasiga ,

shuningdek, inson o'zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyatlar ham turmush sharoitlari va tarbiyaga ko'p jixatdan bog'liqdir". Biz bolani xar bir individual xususiyatiga ijobiy c\va salbiy tasirlarni o'rganishimiz lozim va shu asosida ta'lim tarbiya jarayonlarini ishlab chiqishimiz va amalga oshiorsak ko'zlagan yakuniy maqsadni tezroq amalga oshirishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Science and Education*, 3(12), 590-592.
2. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
3. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O'SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. *Экономика и социум*, (8 (87)), 42-45.
4. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. *Экономика и социум*, (8), 42-45.
5. Bannayev, M. S. (2022). O'zbekistonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. *Science and Education*, 3(6), 701–703
6. кизи Ахмедова, Д. С., & қизи Камолова, А. О. (2022). ЎСМИРЛАРДА МЕЪЁРДАН ХУЛҚИЙ ОҒИШ ХОЛАТЛАРИНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА ХУҚУҚИЙ САВОДХОНЛИКНИНГ АХАМИЯТИ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(3), 413-416.